

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING OILADA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

To'xtayeva Sokina Qurbon qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi birinchi kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15190505>

Anotatsiya. Maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish ularning kelajakdagi jismoniy va ma'naviy rivojlanishi uchun muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari haqida fikr-mulohaza bildirilgan.

Kalit so'zlar: sog'lom avlod, sog'lom turmush tarzi, tarbiyalanuvchi psixologiyasi, oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirish, salomatlik, bilim va ko'nikmalar, tibbiy psixologiya, ma'naviyat, salomatlik psixologiyasi.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА В СЕМЬЕ

Аннотация. Формирование здорового образа жизни у детей дошкольного возраста имеет важное значение для их дальнейшего физического и духовного развития. В статье дается отзыв о педагогических условиях формирования здорового образа жизни у детей дошкольного возраста в семье.

Ключевые слова: здоровое поколение, здоровый образ жизни, психология ребенка, формирование здорового образа жизни в семье, здоровье, знания и умения, медицинская психология, духовность, психология здоровья.

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR FORMING A HEALTHY LIFESTYLE IN PRESCHOOL CHILDREN IN THE FAMILY

Abstract. The formation of a healthy lifestyle in preschool children is important for their future physical and spiritual development. This article provides feedback on the pedagogical conditions for the formation of a healthy lifestyle in preschool children in the family.

Keywords: healthy generation, healthy lifestyle, psychology of the child, the formation of a healthy lifestyle in the family, health, knowledge and skills, medical psychology, spirituality, health psychology.

Kirish. Sog'lom avlodni shakllantirish jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish negizida amalga oshiriladi. Buning uchun esa jamiyatning har bir a'zosi sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yishi, salomatlikni madaniyatlilikning bir ko'rinishi sifatida qabul qilish lozim.

Yoshlar hayotida, yurish-turishida ham mana shunday yangicha tafakurning shakllantirilishi bu boradagi barcha muammolarga yechim bo'lib xizmat qiladi. Bu borada "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"10gi, 2017-yil 9-sentabrdagi 3261-son "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"11gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 29-yanvardagi 65-son "O'zbekistonda sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish va aholini jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb etish to'g'risida", 2020-yil 19-noyabrdagi 735-son "Aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirishga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida" qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish mazkur maqolaning tadqiqot obekti sifatida belgilandi.

Asosiy qism. Maktabgacha ta'lim tashkilotida sog'lom turmush tarzini shakllantirish jarayonida motivatsiya omilining o'rnini baholashda har bir shaxsda uning kundalik hayot faoliyatini taxlil qilish uchun zarur bo'lgan uchta asosiy elementning mavjudligiga e'tiborni qaratish lozim. Jumladan har bir shaxsda:

- sog'lom turmush tarzi haqidagi bilimlarning mavjudligi;
- sog'lom turmush tarzida yashashning insonni sog'lom qilishga va umrini uzaytirishi mumkinligiga qat'iy ishonchning bo'lishi;
- sog'lom turmush tarzida yashash uchun astoydil harakatning mavjud bo'lishi kabilar kiradi.

Nazariy jihatdan olib qaralganda odamlarning kundalik hayotida bu uchburchak turlicha variantlarda shakllangan bo'lishi mumkin. Har bir shaxsning o'z salomatligini mustahkamlashga bo'lgan ichki ehtiyoji uning bu yo'ldagi amaliy harakatini belgilaydi. Shunga ko'ra barcha omillarni:

- gigienik jihatdan to'g'ri va asoslangan turmush tarzida, ya'ni sog'lom turmush tarzida yashovchilarga;
- tibbiy gigienik jihatdan asoslanmagan, ya'ni nosog'lom turmush tarzida yashovchilarga ajratish mumkin. [5].

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti o'sib va rivojlanib borayotgan hozirgi davrda sog'lom turmush tarzining ijtimoiy – gigienik mezonlarini aniq belgilab olishning ahamiyati juda kattadir.

Mamlakatimizda sogʻlom turmush tarzi mafkurasi – inson salomatligining qonuniyatlari va bilimlari majmui emas, balki, inson salomatligini mustaxkamlashga boʻlgan qarashlar tizimidan iboratdir.

STT mafkurasi, R.U.Arziqulovning fikricha, turmush tarzining falsafasini, davlatning sogʻlom turmush tarzini shakllanishi boʻyicha yuritayotgan siyosatini, STT ning huquqiy, ahloqiy asoslarini, STTning pedagogikasi, psixologiyasi, sotsiologik madaniyati, etikasi va hechinasligi oʻzida mujjasmalashtirgan boʻlishi lozim [2].

Maʼlumki, meʼzon – bu shunday bir oʻlchamki, uning yordmida biz uchun oʻlchanishi zarur boʻlgan jarayonlarni shakllantirilgan etalon (standart) bilan taqqoslash imkoniyatiga ega boʻlamiz, uni baholay olamiz. Sogʻlom turmush tarzidek murakkab ijtimoiy jarayonlarni oʻlchashda uning biz uchun maqbul va zarur boʻlgan oʻlchamlarini shakllantirish muhim amaliy ahamiyatga egadir.

Sogʻlom turmush tarzini oʻlchashda ishlatilishi mumkin boʻlgan bunday meʼzonlar qatoriga shaxsning:

- jamoatchilik va mehnat jarayonlarida faollik koʻrsatib, samarali ijodiy faoliyat bilan mashgʻul boʻlishi;

- oilada va kundalik turmushda namunali yashashi;

- oʻzidagi jismoniy va maʼnaviy qobiliyatlarni roʻyobga chiqarishga intilishi;

- tabiiy va ijtimoiy muhit bilan mutanosiblikda yashashi;

- sogʻlom va barkamol inson boʻlib shakllanish uchun oʻz shaxsini bosqichma-bosqich rivojlantirib borishga intilishi;

- nosogʻlom turmush tarziga xos zararli odatlarning quliga aylanib qolishdan va oʻz umrini hayot oqimining ayovsiz girdobiga tushib qolishdan asrashga intilib yashashi;

- faqat uzoq yashayotgani uchungina emas, balki hayotda toʻgʻri yashayotganidan ham qoniqishi hosil qilib, zavqlanib yashashi intilishi;

- sogʻlom turmush tarzini oʻzi uchun bir umrga hamroh qilib olishi kabi qimmatli sifat va xususiyatlarini kiritish mumkin.

Maʼlumki biz naslimizning kelajagi – sogʻlom avlod uchun kurashar ekanmiz oʻz maqsadimizga erishish uchun millatni sogʻlom turmush tarzida yashashga oʻrgatishimiz kerak boʻladi. Sogʻlom avlod deganda, biz faqat jismonan baquvvat farzandlarni emas, balki maʼnaviy jihatdan ham boy va sogʻlom avlodni nazarda tutishimiz lozim.

Sogʻlom turmush tarzi muammosi – odamzod oldida turgan eng muhim muammo – shaxsni har tomonlama rivojlantirish, mehnat turmush va dam olish sohasida, ilmiy jihatdan

asoslangan, ijtimoiy – gigienik faolligi kuchayib borishiga yordam beradigan, ijtimoiy-gigienik jihatdan oqilona bo'lgan turmush tarzini shakllantirish muammosidir.

“Sog'lom turmush tarzi – bu kundalik turmushni biologik va ijtimoiy qonunlar asosida tashkil etib, salomatlikni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan turmush tarzidir” deb ta'riflaydi.

Ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish turli yo'nalishlarda izchillik bilan, muayyan dastur asosida, aniq yo'nalishlarda olib borilishi lozim. Xususan, bu avvalo oliy pedagogik ta'lim jarayonida tarbiyalanuvchilarga sog'lom turmush tarziga oid muayyan tibbiy va gigienik bilimlar berish, ularda sog'lom turmush tarzini saqlashning inson tanasi takomiliga ta'siri haqidagi tushunchalarni shakllantirishga qaratilsa, ikkinchi tomondan, yoshlarda qat'iy rejim asosida gigienik qoidalarga amal qilish, o'zi va yon-atrofdagilarning sog'lig'ini asrashni kundalik odatga aylantirish ko'nikmalarini tarkib toptirish bilan bevosita aloqadordir.

Shuningdek, sog'lom turmush tarzi ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib etilishi bilan birga, barcha ta'lim-tarbiya maskanlari bilan hamjihatlikda maktab, litsey, kollejlarda beriladigan ta'lim-tarbiya mazmuniga chuqur singdirilmog'i lozim.

Ma'lumki, o'zbek oilasida ko'p avlodlilik belgilari yaqqol ifodalanadi. Unda farzand ongida sog'lom g'oya va bilimlar shakllanishida oilaning kattalari - bobolar, momolar, yaqin qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar, mahalla ham bevosita ishtirok etadi. Azaliy odatlarimizga ko'ra, farzandlarimiz tarbiyasiga ota-onadan nisbatan bobo, buvi, qo'shni va qarindoshlarning ta'siri kuchliroqdir. Ular oiladagi ma'naviy muhitning belgilovchilari hisoblanadi. Bu xil tarbiya an'anasi o'tmishdan qolgan muhim ma'naviy-pedagogik qadriyat hisoblanib, buyuk ajdodlarimiz hayotida bu xil tarbiya uslubi shakllanib, muayyan tizim darajasiga yetgan. [4].

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili: Tadqiq etilgan mavzu doirasida ba'zan umumiy, ba'zan alohida ijodkor yoki davr misolida ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borilgan. Ma'naviy merosimiz namoyondalari Abu Ali ibn Sino, Al-Kindiy, Ar-Roziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Rushd, G'azzoliy, Fariduddin Attor, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlar sog'lom fikr va sog'lom turmush yuritish masalalarini islomdagi aqoid, e'tiqodni saqlash va mustahkamlash orqali yoritganlar. Jahon ilm-fanida o'z o'rniga ega olimlarning A.Maslou, F.Nisshe, E.Taylor, M.Mid, E.Fromm, Xose Ortega i Gasset, I.Brexman, X.Gadamer, S.Bryu, A.Disterveg, B.Liddel Gard, R.Makkonellning bu sohadagi izlanishlari e'tiborga molik. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlaridan B.Babin, I.Bestujev Lada, L.Kapustin, G.Glezerman, A.Nalchadjyan, J.Frezer, L.Ionin, V.Pospeevning tadqiqotlari 6-7 yoshli bolalarda sog'lom turmush tarzi oid izlanishlarni amalga oshirishgan bo'lib, ularning ilmiy ishlari muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda N.Mansurov, T.Qosimov, A.Qodirov, K.Yuldashev, N.Maxmudova, B.Do'stchanov, G.Shayxova, O'.Abilov, S.Mamashokirov, Z.Qodirova,

A.Muhiddinov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida sog'lom turmush tarzi masalalarining ijtimoiy-falsafiy tahlili amalga oshirilgan. Metodologiyasi. Bolalarning kundalik odatlari, oziq-ovqat iste'moli, jismoniy faollik darajasi va uyqu rejimi to'g'risida ma'lumot to'plash uchun so'rovnomalar ota-onalar va tarbiyachilarning vakillik namunasiga tarqatildi. Kuzatuv tadqiqotlari bolalarning salomatlik va salomatlik bilan bog'liq xatti-harakatlari va o'zaro munosabatlariga bevosita guvohlik berish va qayd etish uchun maktablar, uylar va o'yin maydonchalari kabi turli sharoitlarda o'tkazildi. Pedagoglar va sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislari bilan bo'lib o'tgan suhbatlarda bolalarning ruhiy salomatligi, xavfsizlikni bilishi va atrof-muhitga mas'uliyati haqida chuqur tushunchalar berildi.

Ta'lim jarayonida maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining sog'lom turmush tarziga oid bilimlaridan foydalanish faollashtirildi va amaliyotda keng qo'llanilib, sog'lom turmush tarzi mazmunini anglab yetishning ahamiyatini e'tiborga olgan holda, tarbiyalanuvchilarda sog'lom turmush tarziga oid tushunchalar, uning turli sathlari muayyan hodisa sifatida bosqichma-bosqich shakllantirilishi lozim. Bunda turli mashg'ulotlar va boshqa o'quv predmetlarini o'rganish jarayonida tarbiyalanuvchilarning sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi ma'lumotlariga tizimli ravishda modeli va kontseptsiyasi yaratish va undan oqilona foydalanish zarur.

Tarbiyachining sog'lom turmush tarzi – bu shaxsda ma'naviy-axloqiy, insonparvarlik, pedagogik, kommunikativ, intellektual, psixologik madaniyatning shakllanishi va takomillashuvi natijasidir. Tarbiyachining sog'lom turmush tarzi – bu shaxsiy salomatlik sohasidagi ijtimoiy-progressiv, maqsadga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, u falsafiy-dunyokarash (sog'lom turmush tarzi umumiy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida qaraladigan) va normativ-xulq-atvor (sog'lom turmush tarzini professional pedagogik faoliyat tavsifi) sifatida namoyon bo'ladi.

Tarbiyachilarning sog'lom turmush tarzini shakllantirishning sharti bu o'qimishlilik, kasbiy faoliyat va hayotiy tajribaning birligidir. Buning uchun avvalo tarbiyachidan quyidagilar talab etiladi: Tarbiyachining sog'lom tafakkurga ega bo'lishi. Oilada maktabgacha yoshdagi bolalarni sog'lom turmush tarzini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan davlat siyosatini tushunishi va targ'ib ilishi, sog'lom turmush tarziga oid chuqur ilmiy-nazariy bilimlar bilan qurollangan bo'lishi, sog'lom turmush tarzining tarixiy, tadrijiy evolyustiyasini bilishi. milliy qadriyatlar, an'analar va urf-odatlarining sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyatini to'la anglab etishi, xalq pedagogikasi va Sharq mutafakkirlari merosida ilgari surilgan sog'lom turmush tarzi haqida g'oyalarni ajrata bilishi, har bir tarbiyachida sog'lom turmush tarzining shakllangan bo'lishi va kundalik hayotda unga amal qilishi, guruhdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonida tarbiyalanuvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda shaxsiy o'rnatish bo'lishi, oilada maktabgacha yoshdagi bolalarni sog'lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiluvchi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish malakasining

mavjudligi va boshqalar. Tarbiyachining salomatligi va sogʻlom turmush tarzini, sogʻlom axloqi va atrofdagilar bilan sogʻlom munosabatlarining oʻziyo tarbiyalanuvchilar hayotini oʻzgartiruvchi, oʻsib kelayotgan avlodni hayotga toʻgʻri yoʻnaltiruvchi muhim omil sanaladi.

Tarbiyachilarning sogʻlom turmush tarzi toʻgʻrisida chuqur bilimga ega boʻlmagan va kundalik hayotda unga toʻla amal qilmagan hollarda ularning salomatligiga zarar keltiruvchi holatlar kuzatilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, maʼnaviy sogʻlom boʻlmasdan turib, jismonan sogʻlom boʻlish mumkin emas. Har ikkala tushuncha bir biriga mos va biri ikkinchisidan taqazo qiladi. Ham jismonan, ham maʼnaviy sogʻlom avlodga ega boʻlgan xalqni esa sindirib boʻlmaydi. Biz jismonan sogʻlom, yuksak maʼnaviyatli va yagona milliy gʻoya asosida jipslashgan millatni shakllantirishni bosh maqsad qilib qoʻyar ekanmiz, millatimiz ertangi kun egalariga sogʻlom turmush tarzida yashashni bugundan oʻrgatishimiz lozim.

REFERENCES

1. Рахимов Ф. Б., Шарипова М. Б. МЕСТО ИННОВАЦИЙ В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ПРОБЛЕМ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ //Academy. – 2020. – №. 5 (56).
2. Шарипова М. Б., Садуллоева М. Б. К. ПРОФЕССИЯ «УЧИТЕЛЬ» И ЕЁ РОЛЬ В ОБЩЕСТВЕ //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 1 (46)
3. Шарипова М. Б., Мустакимова Г. А. Наследие мыслителей в эстетическом воспитании учащихся начальной школы //Вестник магистратуры. – 2019. – №. 10-5. – С. 48-49.
4. Ахмедова М. Ш., Шарипова М. Б. ВОСПИТАНИЕ РЕБЕНКА НА ОСНОВЕ НАРОДНЫХ ТРАДИЦИЙ //Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч. – 2016. – С. 118.
5. Шарипова М. Б., Истамова З. Особенности этического воспитания детей дошкольного возраста //Вестник магистратуры. – 2020. – №. 1-5. – С. 39.
6. Шарипова М. Б., Саъдуллаева М. Б. К. РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51).
7. Шарипова М. Б., Ашурова Ф. А. Межличностные отношения в дошкольном возрасте //Вестник магистратуры. – 2020. – №. 1-5. – С. 35
8. Шарипова М. Б., Нетьматова Ш. Н. Формирование эстетической культуры воспитанников дошкольных образовательных учреждений //Вестник магистратуры. – 2020. – №. 3-3. – С. 113.

9. Камилова, Г. А., Курбанова, Г. Р., & Джаббарова, С. З. (2020). Особенности формирования педагогических навыков у воспитателей дошкольно-образовательных учреждений. *Academy*, (5 (56)), 25-27.
10. Камилова, Г. А., & Тураева, О. С. К. (2021). ФОРМИРОВАНИЕ ДИАГНОСТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Проблемы науки*, (4 (63)), 50-52.
11. Камилова, Г. А., & Курбонова, Г. Р. (2020). Эффективность экологического образования: образование дошкольников с помощью педагогических технологий. *Academy*, (12 (63)), 60-62.
12. Камилова, Г. А., & Курбонова, Г. Р. (2020). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ОБРАЗОВАНИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ С ПОМОЩЬЮ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ. *Academy*, (12), 60-62.
13. Камилова, Г. А. (2021). Развитие системы дошкольного образования. *Вестник науки и образования*, (16-2 (119)), 86-88.
14. Alimovna, K. G. (2022). Laws of Ecological Education. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(2), 241-244.
15. KAMILOVA, G. (2024). EKOLOGIK TARBIYADA PAREMIOLOGIYA VA UNING XUSUSIYATLARI. *News of the NUUZ*, 1(1.1), 83-86.
16. Kamilova, G. A. (2024). PARAMERIK JANRLAR VOSITASIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK YONDASHUV. *Inter education & global study*, (5), 565-5574.
17. Камилова, Г. А. (2023). Мактабгача Таълим Ташкилотларида Экологик Тарбия. *Miasto Przyszłości*, 42, 330-333.
18. Kamilova, G. A., & Rozieva, Z. E. (2022). Botirova. *Ню А. Maktabgacha talim tashkilotlarida bolalarni ekologik-gigienik tarbiyalash imkoniyatlari. Maktabgacha talim-Maktab-Oliy talim konsepsiyasi muammo, yechimlar va istiqbollar xalqaro ilmly-amaliy anjuman materiallari*. Buxoro, 46-48.
19. Kamilova, G. A., & Rozieva, Z. E. (2022). Botirova. *Ню А. Maktabgacha talim tashkilotlarida bolalarni ekologik-gigienik tarbiyalash imkoniyatlari. Maktabgacha talim-Maktab-Oliy talim konsepsiyasi muammo, yechimlar va istiqbollar xalqaro ilmly-amaliy anjuman materiallari*. Buxoro, 46-48.
20. Kamilova, G. (2020). Maktabgacha talim muassasalarida ekologik tarbiyani tashkil etishda integrativ yondashuv. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).

21. Камилова, Г. А., & Нарзиева, Д. Б. (2022). Повышение экономической грамотности у детей дошкольного возраста с помощью развития коммуникативных компетенций. *Вестник науки и образования*, (8 (128)), 44-46.
22. Камилова, Г. А., & Нарзиева, Д. Б. (2022). КОММУНИКАТИВНЫЕ КОМПЕТЕНЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ГРАМОТНОСТЬ. *Вестник науки и образования*, (8 (128)), 47-50.
23. Kamilova, G. A. Go'Zal Rajab Qizi Qurbonova (2021). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIARIGA RAHBARLIK VA BOSHQARISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV. *Scientific progress*, 2(7), 1149-1153.
24. Kamilova, G. A. (2021). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIARIGA RAHBARLIK VA BOSHQARISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV. *Scientific progress*, 2(7), 1149-1153.
25. Камилова, Г. А., Султонова, М. И., & Бобожонова, М. А. (2023). ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТЕХНОЛОГИИ STEAM В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ. *Вестник науки и образования*, (5 (136)-2), 41-44.
26. Safarova, S., & Kamilova, G. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING ERKIN FIKIRLASHINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL USULLARNING ANAMIYATI. *Modern Science and Research*, 3(12), 504-507.
27. Камилова, Г. А., Мухаммедова, М. М., & Жабборова, О. С. К. (2023). МЕТОДИКА СИСТЕМАТИЧЕСКОГО ВКЛЮЧЕНИЯ МЕНТАЛЬНОЙ АРИФМЕТИКИ ЧЕРЕЗ ИГРЫ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. *Вестник науки и образования*, (5 (136)-2), 38-41.
28. Камилова, Г. А., & Кулиева, Х. Г. (2023). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. *Вестник науки и образования*, (4 (135)), 82-84.
29. Jabbarov, I. A. U. (2022). TYPOLOGY AND FUNCTIONS OF A COMPLIMENT. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 854-860.
30. Alimovna, K. G., & Abduraufovna, B. A. (2025). INNOVATIVE APPROACHES TO CREATING A DEVELOPMENTAL ENVIRONMENT FOR PRESCHOOL CHILDREN. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 3(3), 1-5.
31. Камилова, Г. А., & Тохирова, Ш. Б. К. (2023). ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ОБУЧЕНИЯ ВТОРОМУ ЯЗЫКУ В РАЗВИТИИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО

ПОТЕНЦИАЛА ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ
УЧРЕЖДЕНИЯХ. *Вестник науки и образования*, (4 (135)), 84-88.

32. Kamilova, G. A., & Jo'rayeva, D. R. (2022). Maktabgacha yoshdagi bolalarni sifatli maktab ta'limiga tayyorlash imkoniyatlari, "Maktabgacha ta'lim-maktab-oliy ta'lim" konsepsiyasi: muammo, yechimlar va istiqbollar xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.
33. Rahmidinovna, Z. D. (2024). THE GOALS AND OBJECTIVES OF INTEGRATED CLASSES IN ELEMENTARY SCHOOL TECHNOLOGY CLASSES AND THE IMPORTANCE OF INTERDISCIPLINARY COMMUNICATION. *European International Journal of Pedagogics*, 4(11), 50-55.